

Shveytsariyada bo'lib o'tgan nufuzli Xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekistonlik o'quvchilar medallarini qo'lga kiritishdi

// 26.07.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xalqaro-kimyo-olimpiadasi-medallari>



Joriy yilning 16-24-iyul kunlari Shveytsariyada bo'lib o'tgan nufuzli Xalqaro kimyo olimpiadasida O'zbekistonlik o'quvchilar 2 ta oltin, 1 tadan kumush va bronza medallarini qo'lga kiritishgan edi.

Bugun tongda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida tantanali ravishda kutib olindi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan tashkil qilingan tadbirida o'quvchilarning ota-onalari va yaqinlari, ular ta'lim oladigan maktablar vakillari hamda ustozlari, shuningdek, OAV vakillari ishtirok etishdi.





Eslatib o'tamiz, 90 ga yaqin davlatdan 350 nafarga yaqin o'quvchi ishtirok etgan olimpiadada Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Azizbek Nazarov hamda Uchtepa tumanidagi 81-maktabning 10-sinf o'quvchisi Abdulloh Mahmudov oltin medal, Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 11-sinf o'quvchisi Shahzoda Hakimova kumush medal hamda Toshkent shahridagi Prezident maktabining 10-sinf o'quvchisi Sohibjon Dilmurodov bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq oltin medal olgan o'quvchi bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari (165 mln so'm), ustoz 450 baravari (148,5 mln so'm) miqdorida, kumush medal uchun o'quvchi 300 baravar (99 mln so'm), ustoz 250 baravar (82,5 mln so'm) hamda bronza medal uchun o'quvchi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari (66 mln so'm), ustoz 150 baravar (49,5 mln so'm) pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Shu bilan birga, Xalqaro olimpiada g'oliblari OTMIlarga imtiyoz bilan grant asosida o'qishga qabul qilinadi.